



Vebsayt: <https://involta.uz/>

OILADA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING SHAXS XUSUSIYATLARINI SHAKILLANTIRISH

Mamedova Maftuna Muhidinovna

Buxoro davlat universiteti maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya Maqolada oilada maktabgacha yoshdagi bolalarda shaxs xususiyatlarini shakillantirishning muammo va yechimlari, ularni har tomonlama yetuk, go'zal axloqli, xush odobli inson qilib kamol toptirishda oilaning o'rni va ahamiyati, bola shaxsida milliy qadriyat va ruhiyatni tiklash jarayonida oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish masalalari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: oila, maktabgacha ta'lim tashkiloti, shaxs xususiyatlari, oilaviy munosabatlar, milliy-ma'naviy qadriyatlar, tarbiya masalalari, sog'lom muhit, do'stona munosabat, ta'lim sifati

Аннотация В статье рассказывается о проблемах и решениях формирования личностных качеств у детей дошкольного возраста в семье, роли и значении семьи в становлении их всесторонне зрелыми, красивыми, нравственными людьми, укреплении сотрудничества семьи и дошкольной образовательной организации в процессе восстановления национальных

ценностей и психики в личности ребенка.

Ключевые слова: семья, дошкольная образовательная организация, особенности личности, семейные отношения, национально-духовные ценности, вопросы воспитания, здоровая среда, доброжелательное отношение, качество образования

Abstract The article describes the problems and solutions of the formation of personal qualities in preschool children in the family, the role and importance of the family in becoming fully mature, beautiful, moral people, strengthening cooperation between the family and the preschool educational organization in the process of restoring national values and the psyche in the child's personality.

Ketywords: family, preschool educational organization, personality traits, family relations, national and spiritual values, upbringing issues, healthy environment, friendly attitude, quality of education

Oila – nafaqat bir yurtning, balki umuminsoniyatning katta siyosati. Aytish kerakki - davlat siyosati. Nega deganda, bashariyatning tirikligi, uzluksizligi – oiladandir. Oilaning eng birlamchi va bevosita vazifasi, ma’naviyat tili bilan aytganda, muqaddas vazifasi – insoniyatning zanjirini sog’lom va iqtidorli avlodlar bilan ulab borishdan iborat bo‘lib, bu millat, davlat, xalqning zimmasiga yuklangan sharaflı vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, Sharqda farzand ta’lim – tarbiyasi uchun oilaning e’tibori va ahamiyati beqiyosdir.

Farzand – inson hayotining mazmuni, nasl-nasabini davom ettiruvchisi, oilaning mustahkam zanjiridir. Yaxshi, solih farzand – ota-onaning baxt-iqboli, ikki dunyo saodatiga yetkazuvchi dilbandi. Farzandlar “jannat rayhonlari” deb tavsiflanishi bejiz emas. Farzandning odobli, bilimli, salohiyatli, yaxshi fazilatlar sohibi bo‘lib kamol topishida oiladagi tarbiyaning o‘rni beqiyosdir. Shu bilan birga yosh avlod tarbiyasida maktabgacha ta’lim tashkilotining ham o‘rni ahamiyatlidir.

Jamiyatning turli davrlarida oilada bola tarbiyasi masalasi olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Jumladan, sharq mutafakkirlari – Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur,

Alisher Navoiy, Ahmad Donish, Abdurauf Fitrat va boshqalarning asarlaridagi oiladagi shaxslararo munosabatlar, ota-onaning vazifalari, farzandlar burchi haqida g'oyatda ibratli maslahat va o'gitlar bayon etilgan.

Yuqorida qayd etilgan Sharq mutaffakkirlarining oila jamiyatning muhim tarkibiy qismi ekanligi, undagi farzand tarbiyasi va ulardagi shaxsiy sifatlarni tarkib toptirish, sog'lom oilaning shakllanishi va rivojlanishi jamiyat hayotidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy munosabatlar bilan bevosita bog'liq ravishda amalga oshirilishi, oilaning buyuk ma'naviyat, qadriyat, burch va mas'uliyat ekanini anglash zarurligi, bolalarga oilada milliy an'analarimiz, qadriyatlarimiz haqida to'la va to'g'ri tasavvur hosil qilish lozimligini haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy rivojlanishi bolaning jamiyat qadriyatlari, urf-odatlar va madaniyatini, shuningdek, jamiyatda qulay hayot kechirishiga yordam beradigan shaxsning ijtimoiy xususiyatlarini o'zlashtiradi. Ijtimoiy moslashuv jarayonida bolalar muayyan qoidalar asosida yashashni o'rganadilar va xatti-harakatlar normalarini hisobga olishadi. Shu bois, ilg'or xorijiy tajriba asosida "Maktabgacha ta'lim to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, unda har bir bolaning iste'dodi nishonalarini, ishtiyoqlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar tengligi; maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berish uyg'unligi; bolaning shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan shaxsiy yondashuv¹ kabi asosiy prinsiplari belgilab berilgan.

«Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi Qonuni ijrosini ta'minlash, shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarga samarali ta'lim-tarbiya berish hamda qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" gi Qarorida tarbiyalanuvchining intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi; davlat standartining ta'lim

¹.O'zbekiston respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi qonuni 2019-yil 16-dekabr

². O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" gi Qarori

sohasidagi davlat va jamiyat talablariga mosligi; maktabgacha ta'limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalariga asoslanilganligi; xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasida me'yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish² kabi prinsiplariga amal qilgan holda maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish muammosini hal qilish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu vazifalarni mukammal bajarishda oila va bog'chaning mustahkam hamqorligi ilmiy va nazariy jihatdan zarur hisoblanadi.

Mazkur muammolarni o'rganishda psixologlar oldida turgan vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirishda kichik maktab yoshidagi bolalarda ta'limni ilmiy asosda to'g'ri yo'lga qo'yish uchun bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish zarur. O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi bolada uchun nafaqat bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi, balki shaxsiy xususiyatlarining rivojlanishi uchun ham imkoniyat yaratadi. Yetakchi bo'lgan o'quv faoliyatidan ham tashqari boshqa faoliyatlar o'yin, muloqot va mehnat ham o'quvchi shaxsi rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu faoliyalar asosida muvaffaqiyatga erishish motivlari bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy xususiyatlar tarkib topa boshlaydi.

Mashg'ulot jarayoni bolalarga o'qishda muvaffaqiyatga erishish ehtiyojini qondirsa, shuningdek, tengdoshlari orasida o'z o'rniga ega bo'lish imkoniyatini ham yaratadi. Aynan ana shu o'rin yoki mavqega erishish uchun ham bola yaxshi o'qishga harakat qilish mumkin. Bu yoshdagi bolalar doimiy ravishda o'zi erishgan muvaffaqiyatini boshqa tengdoshlarining muvaffaqiyati bilan solishtiradilar. Ular uchun doimo birinchi bo'lish nihoyatda muhim. Bu yoshdagi bolalarda musobaqaga kirishish motivi doimiy ehtiyoj sanalib, bu motiv ularga kuchli emotsional zo'riqishni beradi. Bu xususiyatlar aslida bog'cha davrida boshlanib, kichik maktab hamda o'smirlilik davrida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Bolalar kattalarning u haqidagi bergan baxo va fikrlariga qarab, o'z-o'ziga

beradigan baxosi, asosan, to'g'ridan to'g'ri o'qituvchining beradigan baxosiga va turli faoliyatidagi muvaffaqiyatiga bog'liq. Bu yoshdagi bolalarda mavjud bo'lgan ishonuvchanlik, ochiqlik, tashqi tasirlarga beriluvchanlik, itoatkorlik kabi xususiyatlari ularni shaxs sifatida tarbiyalashga yaxshi imkoniyat yaratadi. Bu davr bolaning turli faoliyatlaridagi muvaffaqiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy shaxsiy xususiyatlarini yuzaga kelish va mustahkamlanish davri hisoblanadi. Bu davrda muvaffaqiyatga erishish motivlari tarkib topishi bilan birgalikda mehnatsevarlik va mustaqillik kabi sifatlari mustahkamlanib boradi. Mehnatsevarlik bolada o'zi qilayotgan ishidan zavq olsagina yuzaga keladi. Bolada mustaqillik xususiyatining shakllanishi asosan kattalarga bog'liq. Agar bola xaddan ziyod ishonuvchan, itoatkor, ochiq bo'lsa unda asta sekinlik bilan boysunuvchanlik, tobelik xususiyatlari mustahkamlanib boradi. Biroq bolani vaqtli mustaqillikka undash, unda bazi salbiy hislatlarini rivojlanishiga ham olib kelishi mumkin. Chunki hayotiy tajribalarni kimlargadir taqlid qilgan holda o'zlashtiradi. Mustaqillikni shakllantirish uchun bolaga mustaqil ishlarni ko'proq buyurish va ishonch bildirish nihoyatda muhimdir. Shunindek, shunday bir ijtimoiy psixologik muhit yaratish kerakki, unda bolaga biror bir ishni mustaqil, ijtimoiy vazifa bajarishni topshirish, bu ishni bajarish jarayonida bola o'zini tengdoshlari, kattalar va boshqa odamlarning lideri deb his qilsin. Ana shu his bolada mustaqil bo'lishga undovchi motivlarni yuzaga keltiradi.

Maktab yoshidagi bola o'zining individual xususiyatlarini anglaydi. Bolani o'z-o'zini anglashi ham jadal rivojlana boradi va mustahkamlana boradi. Bu davrda bolalar o'zlarining ismlariga yanada ko'proq ahamiyat bera boshlaydilar va ularning tengdoshlari va atrofdagilari tomonidan ijobiy qabul qilinishiga harakat qiladilar. Bola o'zining tashqi ko'rinishi va gavda tuzulishiga beradigan baxosi ham o'z-o'zini anglashida kata ahamiyatga ega. Kichik maktab davrining oxiriga borib bolalar, ayniqsa, qizlar o'zlarining yuz tuzulishiga alohida e'tibor bera boshlaydilar. Ular o'zlarining o'quv faolayati jarayonida o'zlaridagi xulq-atvori va faoliyatini o'zi tomonidan muvofiqlashtirish qobilyati rivojlanadi, ongli ravishda

bir fikrga kela olish qobiliyati rivojlanadi, o'z faoliyatini o'zi uyushtirishga hamda bilim olish jarayoniga bo'lgan qiziqishni qaror toptirishga yordam beradi. Bolalar xulq-atvorini motivlashtirishi ham ozgaradi. Bunda do'stlari va jamoaning fikrlari asosiy motivlar bo'lib qoladi.

Axloqiy his tuyg'ular va shaxsning irodaviy xususiyatlari shakllanadi. 5-6 yoshlarda ko'zga tashlangan bolaning xususiyatlari yillar davomida rivojlanadi va mustahkamlanadi. Shuning uchun "Bola boshidan" kabi maqollar xalq o'g'zaki ijodida ko'plab uchraydi. O'smirlik davrinig boshlanishiga kelib juda ko'pgina shaxsiy fazilatlar shakllanib bo'ladi. Bolalarning individualliklari ularni bilish jarayonlarida ham ko'zga tashlanadi. Bu davrda bolalarning bilimlari kengayadi va chuqurlashadi, ko'nikma va malakalari takomillashadi. 3-4 sinflarga borib ayrim o'quvchilarning umumiy va mahsus layoqatlari ko'zga tashlanadi.

Kichik maktab yoshida hayot uchun nihoyatda ahamiyatli bo'lgan muvaffaqiyatga erishish motivi mustahkamlanadi, bu esa o'z-o'zidan boshqa layoqatlarni jadal rivojlanishiga olib keladi. Bu yoshdagi bolalarda diqqat, idrok, xotira, tafakkur va nutq to'liq rivojlanib bo'lganligi uchun ham ularga ta'lim berishda kattalarga qo'llaniladigan uslublardan foydalanish mumkin ma'lumki, bola shaxsini shakllantirish faoliyatini namunali yo'lga qo'yish uchun ularning xarakter xislatlari va shaxsiy xususiyatlarini maqsadga muvofiq tarkib toptirish ayni muddaodir. Har bir o'quvchini individual ahloqiy jihatdan aniqlagandan keyin alohida olingan subyekt bilan individual munosabatda bo'lish imkonini beradi. 8-10 yoshli bolaning shaxsiy fazilatlarini beqaror, dunyoqarashi sodda, tashqi taassurotlarga tez beriluvchidir. Buyuk allomalar ta'kidlagalaridek, kishining xarakteri hammadan ko'proq uning hayotining dastlabki bilimlarida tashkil topadi va mazkur xislatlatida namoyon bo'lgan sifat mustahkam o'rnashadi va bolaning mustahkam tabiatiga aylanadi. Bolaning ikkinchi tabiatida ijobiy xis-tuyg'ularni, shaxs fazilatlarini tarkib toptirishda, yuksak insoniy sifatlarni ularda shakllantirishda barcha ma'suliyat kichik maktab yoshidagi bolalarning zimmasiga tushadi. Kichik o'quvchi turli xil faoliyat turlarida - o'yin, mehnat, sport va san'atda

faol ishtirok etadi. Biroq, o'qitish boshlang'ich maktab yoshida etakchi ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich maktab yoshida ta'lim faoliyati etakchi o'rinni egallaydi. O'quv faoliyati insoniyat tomonidan ishlab chiqilgan bilim va ko'nikmalarni bevosita o'zlashtirishga qaratilgan faoliyatdir.

Oilada maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxs xususiyatlarini shakillantirish murakkab tuzilishga ega bo'lib, uzoq shakllanish yo'lini bosib o'tadi. Uning rivojlanishi yillar davomida davom etadi. Oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti hayoti o'rtasidagi hamkorlik asosida kichik yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish jarayoni dastlabki yillarida qo'yiladi.

Natijada, kichik maktab o'quvchisiga aylangan bola, tayyorgarlik davriga, maktabda ko'p yoki kamroq tajribaga ega bo'lishiga qaramay, o'zini mutlaqo yangi sharoitlarda topadi. Maktab ta'limi nafaqat bola faoliyatining alohida ijtimoiy ahamiyati, balki kattalar modellari va baholashlari bilan munosabatlarning vositachiligi, hamma uchun umumiy qoidalarga rioya qilish va ilmiy tushunchalarni o'zlashtirish bilan ajralib turadi. Bu daqiqalar, shuningdek, bolaning o'quv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, uning aqliy funktsiyalari, shaxsiyat shakllanishi va ixtiyoriy hatti-harakatlarining rivojlanishiga ta'sir qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi qonuni 2019-yil 16-dekabr
2. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" gi Qarori
3. O.Hasanboyeva Pedagogika tarixidan xrestomatiya Toshkent: O'qituvchi, 1993. — 208 bet.
4. Hasanboyeva O. "Oila pedagogikasi" –Toshkent: Aloqachi, 2007. 287-289 b.
5. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. –224-b.

6. Muhidinovna M. M. OILADA MAKTABGACHA VA KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING IJTIMOY XUSUSIYATLARINI SHAKILLANTIRISH //БОШҚАРУВ ВА ЭТИКА ҚОИДАЛАРИ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 103-107.
7. Muhidinovna M. M. Preschool Education System and Family Cooperation in the Formation of Social Characteristics //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 267-270.
8. Mamedova M. M. TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA AXBOROT TECHNOLOGIYALARINING O'RNI //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1230-1234.
9. Mamedova M. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOY XUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYANING O'RNI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
10. Мирзаева Д. Ш., Насимова Н. Қ. Қ., Ҳакимова Н. С. Арт-педагогика для дошкольников //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1201-1205.
11. Rajabova L. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA "STEAM" TECHNOLOGIYASINI TADBIQ ETISH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
12. Rajabova L. BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISHNING SHARTSHAROITLARI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
13. Rajabova L. С., То'Хtayeva M. H. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA TABIAT BURCHAGINI TASHKIL QILISHNING ANAMIYATI //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1224-1229.
14. Rajabova L. MAKTABGACHA TA'LIMDA METODIKA FANLARINI O'QITISH TECHNOLOGIYASINING ASOSIY TAMOIYILLARI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.

15. Temirovna O. L., Choriyevna R. L. Mental Arithmetic is a Non-Traditional way to Teach Preschoolers Verbal Arithmetic //International Journal of Culture and Modernity. – 2021. – Т. 11. – С. 205-208.
16. Baxtiyorovna E. G. Factors that Increase Lesson Effectiveness in Primary Education //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 231-235.
17. Ergasheva G. Личностное отношение-условие учебной и профессиональной деятельности учителя //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 5. – №. 5.
18. Ergasheva G. B. ZAMONAVIY JAMIYATDA FAN VA TA'LIMNING RIVOJLANISHIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TECHNOLOGIYALARNING O'RNI //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 969-974.
19. Ergasheva G. B., Tohirova S. MUSTAQILLIK NE'MATIGA SHUKRONA QILISH VA UNING MUSTAHKAMLIGINI SHAQLASH //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1196-1200.
20. Ergasheva G. НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ВЗАИМОСВЯЗИ МЕТОДОВ И СРЕДСТВ ОБУЧЕНИЯ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.